



“TASDIQLAYMAN”
Transport nazorati inspeksiyasi boshlig`i
J.Karimov

“17” aprel 2024 yil

**Transport nazorati inspeksiyasining ochiqlikni ta'minlash yo'nalishidagi faoliyatini yaxshilashga qaratilgan
CHORA-TADBIRLAR DASTURI**

T/r	Chora-tadbirlar nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Ijro uchun ma'sullar
1.	Ochiqlikka oid qonunchilik hujjatlari ijrosini o'z vaqtida va samarali ta'minlash.	<p>Ochiqlikka oid qonunchilik hujjatlari ijrosini o'z vaqtida va samarali ta'minlash maqsadida ichki idoraviy hujjat qabul qilish va unda quyidagi chora-tadbirlarni nazarda tutish:</p> <ol style="list-style-type: none">1. Mas'ul tarkibiy tarmoqlarning malakali xodimlaridan iborat ochiqlikka oid qonunchilik hujjatlari ijrosini ta'minlash hamda monitoring qilish bo'yicha ishchi guruh faoliyatini tashkil etish;2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 16 iyundagi PF-6247-son Farmoni bilan tasdiqlangan ijtimoiy ahamiyatga molik ma'lumotlarni ishlab chiqish, o'z vaqtida (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-154-son Farmoniga muvofiq) belgilangan resurslarda e'lon qilish uchun mas'ullarni belgilash;3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 14 iyundagi PF-154-son Farmoni bilan tasdiqlangan baholash me'zonlarining har bir indikatorini ijrosi uchun mas'ullarni belgilash;4. Ishchi guruh tomonidan har yarim yil yakuniga ko'ra ochiqlikka oid qonunchilik hujjatlari ijro holati tanqidiy ko'rib chiqish va yo'l qo'yilgan kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish.	<p>2024 yil 1 may</p> <p>2024 yil iyul 2025 yil yanvar</p>	F.Xayriddinov
2.	Ochiq ma'lumotlarni rasmiy veb-saytda e'lon qilinishini tizimlashtirish.	<ol style="list-style-type: none">1. Ijtimoiy ahamiyatga molik ma'lumotlarni rasmiy veb-saytning bosh sahifasida alohida bo'limga joylashtirish;2. Ijtimoiy ahamiyatga molik ma'lumotlar to'plamini rasmiy	Doimiy (qonunchilikda belgilangan)	F.Xayriddinov Sh.Nabiyev


T/r	Chora-tadbirlar nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Ijro uchun ma'sullar
		<p>veb-saytda e'lon qilishga mas'ul shaxs, uning telefon raqami va elektron pochta manzili, to'plamning joylashtirilgan sanasi kabi ma'lumotlarni e'lon qilish;</p> <p>3. Har chorak yakuni bo'yicha (yoki doimiy) e'lon qilingan ochiq ma'lumotlarning rasmiy veb-saytda axborot foydalanuvchilari uchun qulay shaklda saqlanishini ta'minlash;</p> <p>4. Ijtimoiy ahamiyatga molik ma'lumotlarni Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tavsiyasiga asosan taqdim etilgan namunaviy shakllar asosida joylashtirib borish.</p>	muddatlarda)	
3.	Ochiqlikni ta'minlashga mas'ul xodimlar malakasini oshirish.	<p>Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi va boshqa mas'ul idoralar bilan hamkorlikda:</p> <p>1. Ochiqlikni ta'minlashga mas'ul xodimlarning tashkil etiladigan o'quv seminarlarida ishtirokini ta'minlash;</p> <p>2. Ochiqlikni ta'minlashga mas'ul xodimlarning "Open Data" elektron platformasi orqali onlayn malaka oshirishi hamda malaka sertifikatiga ega bo'lishini ta'minlash.</p>	Doimiy (mas'ul idoralardan so'rov kelib tushganda)	Sh.Ruzmetova
4.	Ochiqlikni ta'minlashga mas'ul bo'lgan xodimlar faoliyatining samaradorligini yanada oshirish.	<ul style="list-style-type: none"> - matbuot anjumanlari, brifinglar, press-turlar, taqdimotlar hamda boshqa tadbirlar o'tkazish; - ijtimoiy tarmoqlarda onlayn translyatsiyalar qilish; - matbuot anjumanlari, brifinglar va boshqa tadbirlarda rahbar yoki o'rinbosarlarining ishtirokini ta'minlash; - axborotni yetkazib berish (har oyda kamida bir marta infografika va foto, vidoye shaklda); - axborotning qamrovini (radio, televideniye, gazeta, ijtimoiy tarmoqlar, messenjerlar va veb-saytda e'lon qilish) oshirish; - sohaga oid muammolarni yoritish, shu jumladan, birinchi manba sifatida yoritish; - tanqidiy materiallarga munosabat bildirishning tezkorligini oshirish; - tadbirlar haqidagi axborotlarning rasmiy veb-sayt, messenjer va ijtimoiy tarmoqlarda e'lon qilinishi tezkorligi oshirish; - rahbar yoki axborot xizmati rahbarining muayyan axborot 	Doimiy (qonunchilikda belgilangan muddatlarda)	F.Xayriddinov

T/r	Chora-tadbirlar nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Ijro uchun ma'sullar
		voqeligi munosabati bilan rasmiy bayonot berishi; - xorijiy ommaviy axborot vositalarida materiallar e'lon qilish.		
5.	Rasmiy veb-saytda axborotlarni joylashtirish va elektron davlat xizmatlari ko'rsatishni yaxshilash.	- tasdiqlangan dasturlar to'g'risidagi ma'lumotlarning e'lon qilib borish; - ommaviy tadbirlar to'g'risidagi ma'lumotlarning e'lon qilish; - murojaatlarning umumlashtirilgan natijalarini e'lon qilib borish darajasi; - ma'lumotlarni boshqa tillarga sinxronlash funksiyalarining joriy qilish; - yangi ma'lumotlar bilan interaktiv usulda tanishish imkoni joriy etish; - «Onlayn maslahatchi» xizmatining tashkil etilganligi va boshqa qator chora-tadbirlarni amalga oshirish.	Doimiy (qonunchilikda belgilangan muddatlarda)	F.Xayriddinov Sh.Nabiyev
6.	Ijtimoiy ahamiyatga molik ma'lumotlarni ochiq e'lon qilish va jamoatchilik oldida hisobdorlik tizimini yo'lga qo'yish.	- tasdiqlangan ish rejalar to'g'risidagi ma'lumotlarning e'lon qilish; - hisobot (hay'at) yig'ilishlari to'g'risidagi ma'lumotlarning e'lon qilish; - mansabdor shaxslarning xarajatlari to'g'risidagi ma'lumotlarning e'lon qilish; - avtomottransport vositalari to'g'risidagi ma'lumotlarning e'lon qilish; - xizmat uylari va boshqa ko'chmas mulklar to'g'risidagi ma'lumotlarning e'lon qilish; - xarajatlar smetasi to'g'risidagi ma'lumotlarning e'lon qilish; - davlat xaridlari to'g'risidagi ma'lumotlarning e'lon qilinishi - ochiqlik sohasini takomillashtirish bo'yicha ishlab chiqilgan takliflar to'g'risidagi ma'lumotlarning e'lon qilish; - o'zini o'zi baholash tartibi to'g'risidagi ma'lumotlarning e'lon qilish; - ochiqlik sohasidagi shikoyatlarni ko'rib chiqish tartibi	Doimiy (qonunchilikda belgilangan muddatlarda)	F.Xayriddinov Sh.Nabiyev G'.Nurmatov

T/r	Chora-tadbirlar nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Ijro uchun ma'sullar
		to'g'risidagi ma'lumotlarning e'lon qilish; - ochiqlikni ta'minlash sohasida qabul qilingan qonunchilik hujjatlari to'g'risidagi ma'lumotlarning e'lon qilish; - ochiqlikni ta'minlash bo'yicha onlayn so'rovnoma o'tkazish blokining tashkil etish; - ochiq ma'lumotlar to'plamini pasportlash tartibining joriy etish; - ochiq ma'lumotlar to'plami va qayta aloqa samaradorligini baholash tizimining joriy etish.		
7.	Budget jarayonining ochiqligini ta'minlashga oid ma'lumotlarning rasmiy veb-saytda joylashtirilishini ta'minlash	- mablag'lar taqsimoti to'g'risidagi ma'lumotni e'lon qilish; - davlat xaridlari to'g'risidagi ma'lumotlarni e'lon qilish; - asosiy vositalarning xarid qilinishi to'g'risidagi ma'lumotlarni e'lon qilish; - kam baholi va tez eskiruvchi buyumlarning xaridi to'g'risidagi ma'lumotlarni e'lon qilish; - qurilish, rekonstruksiya qilish va ta'mirlash ishlari to'g'risidagi ma'lumotlarni e'lon qilish;	Doimiy (qonunchilikda belgilangan muddatlarda)	Sh.Nabiyev G'.Nurmatov
8.	Ochiq ma'lumotlar portalida ma'lumotlar joylashtirilishini ta'minlash	- ijtimoiy ahamiyatga molik ma'lumotlar to'plamini e'lon qilish; - ochiq ma'lumotlar asosida mobil ilovalar ishlab chiqish;	2024-yil iyun	F.Xayriddinov Sh.Nabiyev
9.	Ommaviy kommunikatsiya texnologiyalarini joriy qilish	- rahbar bilan bevosita muloqot qilish tizimining tashkil etish	2024-yil dekabr	Sh.Nabiyev F.Xayriddinov
10.	Korrupsiya holatlarini barvaqt aniqlash va ularning oldini olishda ochiqlikni ta'minlash.	- korrupsiya holatlarini barvaqt aniqlash va ularning oldini olishga doir ichki idoraviy hujjatlarning ochiq e'lon qilish; - kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo'yishda korrupsiyaviy holatlarning oldini olish tizimi joriy etish, shu jumladan, rasmiy veb-saytda ishga qabul qilish va rotatsiya to'g'risidagi ma'lumotlar (axborot) e'lon qilib, bo'sh ish o'rinlari uchun nomzodlarni tanlash jarayonlarini jonli (onlayn) translyatsiya qilib borish; - korrupsiyaga nisbatan murossasizlik munosabatini belgilovchi hujjatlarni e'lon qilish;	2024 yil may	Sh.Bekmirzayev Sh.Nabiyev

T/r	Chora-tadbirlar nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Ijro uchun ma'sullar
		<ul style="list-style-type: none"> - manfaatlar to'qnashuvi holatlari haqida jamoatchilik oldida hisobdorlik tizimining joriy etish; - korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash, ularning oldini olish choralarini ko'rish va natijalari haqida hisobdorlik tizimi yo'lga qo'yish; - xodimlarning korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha ichki tartib-taomillaridan xabardorligi hamda sohadagi bilim va ko'nikmalarini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar to'g'risidagi ma'lumotlarni e'lon qilish; - keng jamoatchilik va ommaviy axborot vositalari ishtirokida o'tkazilgan press-tadbirlarni infografika va video formatda e'lon qilib borish; - korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish borasida tayyorlangan targ'ibot materiallarini e'lon qilish va boshqa qator chora-tadbirlarni amalga oshirish. 		
11.	Jamoatchilik kengashi faoliyati ochiqligini yanada takomillashtirish.	<ul style="list-style-type: none"> - rasmiy veb-saytda jamoatchilik kengashi haqidagi ma'lumotlarni to'liq joylashtirilishini ta'minlash; - jamoatchilik kengashining tashkiliy-huquqiy asoslarini to'liq ishlab chiqish hamda belgilangan tartibda e'lon qilish; - jamoatchilik kengashi tarkibini shakllantirish bo'yicha belgilangan talablarni bajarish; - jamoatchilik kengashining ochiqlikni ta'minlash, korrupsiyaga qarshi kurashish va davlat organi faoliyatini takomillashtirishdagi ishtirokini oshirish va boshqa chora-tadbirlarni amalga oshirish. 	2024 yil may	F.Xayriddinov

Axborot xizmati boshlig'i



F.Xayriddinov